

ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING TA'LIMY MUAMMO SIFATIDA

Rustamova Dildora

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti

Ilmiy rahbar: Gulyamova Xolida

rustamovadildora@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili ta'limida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish masalasi ta'limiy muammo sifatida ko'rib chiqiladi. Kommunikativ yondashuvning mazmuni, o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishdagi o'rni hamda bu jarayonda uchraydigan muammolar va ularning yechimlari tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос формирования коммуникативных навыков учащихся в процессе обучения родному языку как образовательная проблема. Анализируется содержание коммуникативного подхода, его роль в развитии речевой деятельности учащихся, а также проблемы, возникающие в этом процессе, и пути их решения. Также обсуждается важность использования современных педагогических технологий в учебном процессе.

Abstract: This article considers the issue of forming students' communicative skills in native language education as an educational problem. The content of the communicative approach, its role in the development of students' speech activity, as well as the problems encountered in this process and their solutions are analyzed. The importance of using modern pedagogical technologies in the lesson process is also discussed.

Kalit so'zlar: ona tili, kommunikativ ko'nikma, muloqot, interaktiv metodlar, nutq madaniyati, ta'limiy muammo.

Ключевые слова: родной язык, коммуникативные навыки, общение, интерактивные методы, речевая культура, образовательная проблема.

Keywords: native language, communicative skills, communication, interactive methods, speech culture, educational problem.

Bugungi kunda ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri – o'quvchilarda mustaqil fikrlash, o'z fikrini aniq, to'g'ri va mantiqli tarzda bayon etish qobiliyatini shakllantirishdir. Ayniqsa, bu vazifa ona tili fanida yanada dolzarb hisoblanadi. Chunki ona tili darslari

nafaqat grammatik bilimlarni o'rgatadi, balki o'quvchilarning hayotiy faoliyatida zarur bo'ladigan kommunikativ ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Kommunikativ ko'nikmalar – bu insonning ijtimoiy hayotda samarali muloqot qilish, o'z fikrini ifoda etish, boshqa insonlarning fikrlarini tushunish va ularga mos ravishda javob bera olish qobiliyatidir. Bu ko'nikmalar shaxsning ijtimoiylashuvi, bilim olish jarayoni va kelajakdagi kasbiy faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Til ko'nikmalarini shakllantirishda muloqotning o'z rni juda ham ahamiyatli. Bir vaqtning o'zida eshitish, yozish, o'qish va ayniqsa gapirish ko'nikmalarini barobar shakllantirish uchun kommunikativ yondashuv asosida xorijiy tilni o'zlashtirish, an'anaviy usulga qaraganda ancha tezroq samara beradi. Masalan, eng muhim hisoblangan kommunikativlik qobiliyati va ko'nikmalarini rivojlantirishda, o'rganuvchilar o'rtasidagi hissiy bog'liqliklarni amalga oshirishga yordam beradi, tarbiyaviy ahamiyatga ham ega bo'lib, ulardagi muammolarni yechishga yordam beradi. Guruhlarda ishlashda, do'stlarining «Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya fikrlarini tinglashga va ularni qabul qilishda kommunikativ roli kattadir.

Talabalar kommunikativ faoliyatini o'stirishda kommunikativ o'qitishning bir yo'nalishi bo'lgan'' Interfaol ''metod muhim rol o'ynaydi. Chunki aynan mana shu metod talabalarning chet tilida o'zaro erkin muloqot olib borishini taqozo etadi. Ayniqsa bunday metod bilan chet tilini o'qitishda nutqning barcha turlari bilan ish ko'rish yaxshi natija beradi. Demak, talabalarning monologik nutqi, dialogik nutqi va ayniqsa polilogik nutqiga asosiy e'tiborni qaratib darsda yakka, juft va guruh bo'ylab ishlash yo'lga qo'yilishi lozimki, unda talabalar o'zlarida bevosita monologik nutq, dialogik nutq va polilogik nutq ko'nikma va malakalarini shakllantirishga erishadilar.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs munozarada fikrlash asnosida, hamjixatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi [2]:

- ✓ ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ✓ ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ✓ ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;

- ✓ ta’lim jarayoni ta’lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;
- ✓ ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi;
- ✓ amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ✓ ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Talabalar kommunikativ faoliyatini shakllantirish metodist o‘qituvchidan katta va muntazam mehnatni talab qiladi. Bunday faoliyatni shakllantirish o‘ziga xos texnologiyaga, ya’ni qator ijodiy metodik ishlar va faoliyatlarning majmuasiga asoslanadi, aks xolda natijalar yomon bo‘lib chiqishi mumkin.

Kommunikativ faoliyatni shakllantirishda didaktik prinsplarining barchasiga rioya qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bu esa kommunikativ faoliyatni shakllantirishda bosqichma – bosqich ish ko‘rishni bevosita taqozo etadi. Har bir bosqichda olib boriladigan u yoki bu faoliyat turi mantiqan obdon rejalashtirilishi kerak, ayniqsa, bosqichlarga ko‘ra kommunikativ faoliyatni shakllantirishda til materiallarining talabalarga bo‘lib – bo‘lib o‘rganish uchun taqdim etish, oddiydan murakkabga o‘tish prinsipiga amal qilish birinchi darajali ahamiyatga ega.

1. Kommunikativ ko‘nikmaning mohiyati

Kommunikativ ko‘nikmalar – bu og‘zaki va yozma nutqni samarali tashkil etish, turli muloqot vaziyatlarida til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatidir. Bunday ko‘nikmalar o‘quvchining til haqidagi bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishini ta’minlaydi.

2. Ona tili darslarida kommunikativ yondashuv

Zamonaviy ta’limda kommunikativ yondashuv ona tili o‘qitish jarayonining asosiy tamoyiliga aylangan. Bu yondashuvning maqsadi – o‘quvchini faol muloqotga tayyorlash, uni nutqiy faoliyatning subyekti sifatida shakllantirishdir. Dars jarayonida quyidagi usullar samarali hisoblanadi: Interaktiv metodlar: “Rol o‘ynash”, “Munozara”, “Aqliy hujum” kabi usullar o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantiradi. Hayotiy vaziyatlar asosida topshiriqlar: Kundalik muloqotga yaqin mashqlar o‘quvchilarning amaliy til ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Guruhli ishlash: Guruhlarda fikr almashish, muhokama qilish orqali ijtimoiy va kommunikativ faollik oshadi. Kommunikativ o‘yinlar darsda qo‘llashda o‘rganuvchilarning asabiy bosimlarini yo‘qotishga, dars davomida barcha o‘quvchilarning bir xilda faol ishtiroklarini va faoliyat shakllarini almashtirishga imkon yaratadi.

3. Uchraydigan muammolar va ularning yechimlari

Ta’limiy muammolar: O‘quv dasturining yetarlicha samarali bo‘lmasligi: Ba’zi hollarda ona tili arslarida kommunikativ ko‘nikmalarga e’tibor berilmaydi. Darslar ko‘proq nazariy materiallarga asoslangan bo‘lishi mumkin, bu esa amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi. O‘qituvchilarning tayyorgarligi: O‘qituvchilarning kommunikativ

metodologiyalar bo'yicha bilim va ko'nikmalari yetarli bo'lmashligi. Ular o'quvchilarni muloqotga jalb qilish va ularning fikrlarini ifodalashlari uchun zarur bo'lgan vositalarni taqdim etishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin.

O'quvchilarning motivatsiyasi: O'quvchilarning ona tiliga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasi past bo'lishi, bu esa ularning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Amaliy mashg'ulotlarning yetishmasligi: Darslarda amaliy mashg'ulotlar, rolli o'yinlar yoki guruhli muhokamalar kabi interaktiv faoliyatlar kam o'tkazilishi, o'quvchilarning real hayotdagi muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda to'sqinlik qiladi. Texnologiyalardan foydalanish: Zamonaviy texnologiyalar va resurslardan samarali foydalanmaslik, o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda imkoniyatlarni cheklaydi.

4. Ona tili darslarida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda bir qator muammolar kuzatiladi. Ular quyidagilardan iborat:

Darslarning an'anaviy, ma'ruza tarzida o'tishi;

O'quvchilarning dars jarayonida passivligi;

Til qoidalarini amaliyot bilan bog'lashda sustlik.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralar muhim:

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish;

O'quvchilarni dars jarayonida faol muloqotga jalb etish;

Ona tili darslarini hayotiy tajriba bilan bog'lab o'tish.

Darslarni interaktiv qilish: O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun darslarni interaktiv usullar bilan o'tish, masalan, guruhli ishlar, munozaralar va rolli o'yinga asoslangan faoliyatlar. O'qituvchilarni tayyorlash: O'qituvchilar uchun kommunikativ metodologiyalar bo'yicha seminarlar va treninglar tashkil etish. Motivatsiyani oshirish: O'quvchilarning ona tiliga qiziqishini oshirish uchun turli xil kreativ loyihalar va tadbirlar o'tkazish. Texnologiyalardan foydalanish: Zamonaviy texnologiyalarni, masalan, onlayn platformalarni va mobil ilovalarni dars jarayoniga kiritish orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish. Ushbu muammolarni hal etish orqali ona tili darslarida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini samarali ravishda shakllantirish mumkin bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish – nafaqat til bilimlarini chuqurlashtirish, balki ularning ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyatli ishtirok etishiga ham xizmat qiladi. Kommunikativ yondashuvni dars jarayoniga samarali joriy etish, interaktiv metodlardan foydalanish va amaliy muloqot vaziyatlarini yaratish bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Natijada, o'quvchilar tilni

faqat nazariy bilim sifatida emas, balki hayotda faol qo‘llay oladigan vosita sifatida egallaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.G'ulomov, M.Qodirov. Ona tili metodikasi. –T.: O'qituvchi. 1998.
2. N.Mahmudov. Nutq boyligi. Umumfilologik tadqiqotlar: muammolar va yechimlar. – Jizzax, 2011. -22-bet.
3. Abdulxay Sobirov. Til va adabiyot ta'limi. jurn. 2003.1 -soni. 11-13-betlar.
4. Amanova A.N. O‘zbekistondagi gen muhandisligi sohasining istiqbollari va mavzuni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish. “Journal of Natural Science” №2(7) 2022 y.
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
6. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. T.: O‘qituvchi, 2004 yil.